



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



No7
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiyaga fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 102 sahifa,
1-iyul, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Umarova H. O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Umarova H.O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD)

Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Umarova H. O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G' B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali Oliy attestatsiya komissiyasining 26-08-2024-yildagi №11-05-4381/01-Kengash tavsiyasiga ko’ra, pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo’yicha ekspert kengashi tavsiyasi (29-10-2024-y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (30-10-2024-y., №10/24); OAK Rayosatining qarori (31-10-2024-y., №363/5).

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo’yicha
ro’yxatdan o’tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish.....	16
<i>Nazarov Odil Omanqulovich</i>	
"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni	20
<i>Abirova Umida Nazarovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati	23
<i>Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li</i>	
Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari	27
<i>Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda ta'limiy o'yinlarning ahamiyati ..	31
<i>Salimova Dilmira Farxodovna</i>	
Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar	34
<i>Rajabov Asliddin Xolmirzayevich</i>	
Favqulodda vaziyatlar yo'nalishi ta'limida muloqotning ahamiyati.....	37
<i>Boltayev Baxtiyor Yunusovich</i>	
Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar	41
<i>E. Po'latova</i>	
Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati	44
<i>Egamova Ravshanoy Surobjonovna</i>	
O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin?	
Innovatsion ta'lim yondashuvlari va samarali strategiyalar.....	48
<i>G'ayniddinov Shayxislom Tolibjon o'g'li</i>	
Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi	53
<i>Isayeva Mushtariy Alisher qizi</i>	
Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons	56
<i>Mavlonova Dildora Shuxrat qizi</i>	
Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish	60
<i>Nomozova Dilobar Suyun qizi</i>	
Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirish: bosqichlar va tamoyillar.....	65
<i>Norboyeva Moxigul Shavkat qizi</i>	
3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories	68
<i>Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li</i>	
Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction: a Review of Recent Literature	73
<i>Ruzieva Maftuna</i>	
Onlayn va gibrid ta'lim sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga qiziqishni oshirishning nazariy asoslari.....	78
<i>Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna</i>	
Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi (9-sinflar uchun "metallar va ularning umumiy xususiyatlari" mavzusida)	81
<i>Sharipova Hakima Shavkatovna</i>	
Metacognition and Self-Regulated Learning	85
<i>Turayeva Nazira Ibragimovna</i>	
Методические возможности совершенствования обучения научной письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода	88
<i>Меденцева Наталья Петровна</i>	
Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari	93
<i>Jonibekov Jasur Jonibekovich</i>	
O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi.....	98
<i>Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi</i>	



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARINING IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIMiy O'YINLARNING AHAMIYATI

Salimova Dilmira Farxodovna

Alfraganus universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrası (PhD)



Annotatsiya: Ushbu maqolada tarbiyachilarning ijodkorligini rivojlantirishda, ular olib boradigan ta'lim–tarbiya jarayonida bolalarning bilim va ko'nikmalarini oshirishda hamda ijodiy tafakkurini shakllantirishda ta'limiy o'yinlarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, maqolada bunday o'yinlarning bolalarda javobgarlik hissini rivojlantirishi, ijtimoiy munosabatlarni yaxshilashi va ularning umumiy rivojlanishiga xizmat qilishi ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: bola, madaniyat, tushuncha, ta'lim, tarbiya, maktabgacha ta'lim, o'yin, didaktik o'yin, ta'limiy o'yin.

Abstract: The article emphasizes the crucial role of educational games in fostering teachers' creativity, enhancing children's knowledge and skills during the educational process, and developing their creative thinking. It also demonstrates how such games can cultivate a sense of responsibility in children, improve social relationships, and contribute to their overall development.

Key words: child, culture, concept, education, upbringing, preschool education, game, didactic game, educational game.

Аннотация: В статье подчеркивается большое значение образовательных игр в развитии творческих способностей педагогов, повышении знаний и умений детей в образовательном процессе и развитии их творческого мышления. Также показано, как такие игры могут формировать у детей чувство ответственности, улучшать социальные отношения и способствовать их всестороннему развитию.

Ключевые слова: ребёнок, культура, понятие, образование, воспитание, дошкольное образование, игра, дидактическая игра, обучающая игра.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tizimi ta'lim tizimining eng boshlang'ich bo'g'ini hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash hamda maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son¹ qaroriga muvofiq "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" qabul qilindi^[1].

Bu qaror va farmonlar o'z navbatida intellektual, barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi. Ular maktabgacha ta'lim tizimining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, tashkilotlarni malakali pedagog va tarbiyachilar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, farzandlarimizni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish kabi dolzarb masalalarni hal etishda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Bu muhim vazifalarni amalga oshirish bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, shu bilan birga bolalarning o'yin faoliyatini to'g'ri tashkil etish va loyihalashtirish asosiy vazifalardan biri ekanligini ko'rsatadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning o'yin faoliyatini tashkil etish vosita va usullarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish tashkilot faoliyatining samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Hozirgi zamon didaktikasi va metodikasida bu borada zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanish muammosi ko'pincha ta'lim uzviyligini ta'minlashning muhim omili sifatida qaralmoqda.

1 <https://lex.uz/uz/docs/-4327235>



Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish jarayoni o'yin faoliyati natijasida yuz beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-estetik qobiliyatlarini shakllantirishda o'yin faoliyatining roli juda beqiyos hisoblanadi.

Ma'lumki, har bir mamlakatning yuksalishi, rivojlanishi yoki aksincha, inqirozga yuz tutishi o'sha mamlakatdagi ta'lim tizimining rivojlanganlik darajasiga ham bog'liq. Ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lgan ilm-ma'rifat va ta'lim-tarbiyani inson kamoloti hamda millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan. Farzandlarimizning har tomonlama rivojlanishi bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llaydigan ta'limiy o'yinlarga xorijiy olimlardan professor Y. A. Arkin shunday ta'snif bergan: "Ta'limiy o'yinlar o'z mazmuni va tashkil etilishi, bolalarga ta'sir ko'rsatish darajasi, vositalarning turlari hamda kelib chiqishiga ko'ra xilma-xil bo'lishi kerak" deb hisoblaydi [2].

Bolalarning ta'limiy o'yiniga tarbiyachining rahbarlik qilishi muhimdir. O'yin bolalar uchun qiziqarli dam olish vositasi bo'lishi bilan birga, ularni rivojlantirish va tarbiyalashning samarali vositasidir. Ammo ta'limiy o'yin faqat kattalar tomonidan to'g'ri tashkil etilib, unga rahbarlik qilingandagina ijobiy natija beradi.

Ya. A. Komenskiy, K. D. Ushinskiy, A. S. Makarenko, P. F. Lestgaflarning g'oyalari hozirgi zamon bolalar o'yini nazariyasi uchun ham ahamiyatlidir. "Bolalar o'yini ko'p asrlik tarixga ega", – deb yozgan edi.

Komenskiy o'yinni bola faoliyatining, uning tabiati va mayllariga to'g'ri keladigan zarur shakli deb hisoblar, o'yinni "bolaning barcha qobiliyat ko'rinishlari rivojlanadigan jiddiy aqliy faoliyat" deb ta'rifladi. Uning fikricha, o'yinda borliq va dunyo haqidagi tasavvurlar doirasi kengayadi va boyiydi, nutq rivojlanadi, bola tengqurlari bilan do'stlashadi. Komenskiy o'yinni quvnoq bolalik va bolani uyg'un rivojlanishi sharti sifatida qarar ekan, kattalarga bolalar o'yinlariga e'tiborli munosabatda bo'lishni va ularga oqilona rahbarlik qilishni maslahat bergan edi [5].

Ammo o'yin bilan ta'lim o'rtasidagi bog'liqlik bola ulg'aygan sari o'zgaradi. Kichik guruhda o'yin ta'lim berishning asosiy shakli hisoblansa, katta guruhga o'tilganda mashg'ulotlarda ta'limning roli ortadi. Tayyorlov guruhiga borganda esa bolalarning maktabdagi o'qishga bo'lgan ishtiyoqi uyg'onadi. Biroq bolalar uchun o'yinning qadri yo'qolmaydi, faqat uning mazmuni o'zgaradi: endi bolalarni ko'proq fikriy faollikni talab etuvchi, didaktik o'yinlar qiziqтира boshlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Pedagog bolalarning ta'limiy o'yiniga rahbarlik qilarkan, quyidagi talablarga e'tibor berishi zarur:

O'yin mazmuni ta'lim-tarbiya beruvchi ahamiyatga ega bo'lishi, aks ettirilayotgan narsalar haqidagi tasavvurlar to'g'ri va to'la bo'lishi, o'yin harakatlari faol, ma'lum maqsadga qaratilgan va ijodiy xususiyatga ega bo'lishi kerak.

Hamma va ayrim bolalarning qiziqishlarini inobatga olgan holda ta'limiy o'yinga rahbarlik qilish, o'yinchoqlar va boshqa kerakli materiallardan maqsadga muvofiq foydalanish, bolalarning o'yinda xayrixoh va xursand bo'lishlarini ta'minlash lozim.

Ta'limiy o'yin jarayonida pedagog bola shaxsining barcha tomonlariga – ongiga, his tuyg'ulariga, irodasiga va hulqiga – ta'sir etishi, bundan esa bolalarni aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy tomondan tarbiyalashda foydalanishi zarur.

Bola o'ynayotganda kishilar mehnati, ularning aniq harakatlari va munosabatlari to'g'risidagi tasavvuri yetarli emasligini sezib qoladi va buning natijasida kattalarga savol bera boshlaydi. Tarbiyachi bolalarning bunday savollariga javob berib, ularning bilimlariga aniqlik kiritadi va ularni boyitadi [3].

Tarbiyachi ta'limiy o'yin orqali bolalarda ona-vatanga, o'z xalqiga va boshqa millat kishilariga ijobiy munosabatni shakllantiradi hamda mustahkamlaydi. Shuningdek, ta'limiy o'yin yordamida bolalarda jasurlik, to'g'rilik va o'zini tuta bilish kabi sifatlar tarbiyalanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'limiy o'yin bolalarda ijtimoiy axloqni, ularning hayotga va bir-biriga bo'lgan munosabatini shakllantiruvchi o'ziga xos maktabdir. Ta'limiy o'yinda bola kishilarning axloq-odob normalarini hamda mehnatga munosabatlarini bilib oladi. Agar o'yinga to'g'ri rahbarlik qilinmasa, u noxush oqibatlariga ham olib kelishi mumkin. Tarbiyachi bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalashda o'yindan keng foydalanadi. Ko'p o'yinlar bolalardan faol harakat qilishni talab etadi, bu esa o'z navbatida modda almashinuvini yaxshilaydi, qon aylanishini tezlashtiradi. Bundan tashqari faol harakat bola gavdasining to'g'ri o'sishini va harakatlarining chiroyli bo'lishini ta'minlaydi. O'yin orqali tarbiyachi bolalarda quvnoq kayfiyat yaratadi, ijobiy ruhiyat hosil qiladi va bu bolaning asab-ruhiy hamda jismoniy tarbiyasini yaxshilaydi [4].



O'yin bolalarga estetik tarbiya berish vositasi sifatida ham keng qo'llaniladi. Bolalar tevarak-atrofdagi hayotni, voqealarni obrazlar va rollar orqali ham aks ettiradilar. O'yin vaqtini tanlay bilish ham muhim ahamiyatga ega: nonushta bilan mashg'ulot orasida bolalar o'yiniga 8–10 daqiqa vaqt ajratiladi. Bunda bolalar ko'pincha avval boshlagan o'yinlarini davom ettiradilar. Bu muddat mobaynida maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ularning kommunikativ sifatlarini oshiruvchi didaktik o'yinlarni o'ynashni maslahat beramiz.

Masalan, Reggio Emilia yondashuvi – italyan pedagogi Loris Malaguzzi tomonidan ishlab chiqilgan va dunyo miqyosida e'tirof etilgan ta'lim metodidir. Ushbu yondashuv bolalarning o'z-o'zini rivojlantirishiga, ijodkorlik va o'zini ifodalashga katta e'tibor qaratadi. Reggio Emilia tizimida ta'lim jarayoni bolaning individual ehtiyojlari, qiziqishlari va hissiy rivojlanishiga asoslanadi.

Didaktik o'yinlarning mazmuni "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida bayon qilingan va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- buyumlar – ularning nomi, rangi, shakli, hajmi, sifati va ishlatilishi to'g'risidagi bilimlar;
- mehnatning turli turlari va ularning kishilar hayotidagi roli to'g'risidagi tushunchalar;
- tabiat voqealari, narsalar-buyumlar, yil fasllari haqidagi ma'lumotlar;
- dastlabki matematik tushunchalar: son, sanoq, kattalik, shakl, vaqt va fazoviy tasavvurlar.

Didaktik o'yinlar ta'lim-tarbiyaviy vazifasi, mazmuni hamda maktabgacha ta'lim tashkilotining amaldagi dasturidagi yosh guruhlariga muvofiq belgilanadi. Dasturda har bir yosh guruhning ruhiy-fiziologik xususiyatlari inobatga olingan holda didaktik o'yinning tutgan o'рни, vazifasi, mazmuni va o'tkazish uslublari ko'rsatib berilgan [6].

Masalan, 3–4 yoshli bolalar bilan o'tkaziladigan didaktik o'yinlarning asosiy maqsadi bolalarni ranglarni bir-biridan ajratishga va ularning nomini aytishga o'rgatish, katta-kichik ko'rgazmalar, shakllar (sharcha, kubcha) bilan tanishtirish, idrok va diqqatni rivojlantirish hamda mayda harakatlarni o'stirishdir. Shu bilan birga "Juft kartochkalar", "Kattalar va kichkinalar", "Qo'g'irchoqni sayrga olib chiqish uchun kiyintiramiz", "Qo'g'irchoqni cho'miltiramiz", "Bu nimaning ovozi?", "Xaltachada nima bor?" kabi o'yinlar ham keng qo'llaniladi.

Bundan tashqari bolalarni musiqa tovushlarini farqlashga o'rgatish uchun musiqaviy-didaktik o'yinlar o'tkaziladi. Bunday o'yinlarda musiqa ovozlarning turli xususiyatlarini (baland-pastlik, ritm, tembr, dinamika) ajrata bilishga o'rgatiladi, shuningdek musiqaga qadam va yugurish ritmini his etish mashqlari bajariladi.

Didaktik o'yinlar orqali bolalar eshitish, ko'rish va sezish a'zolari yordamida turli narsalar hamda ularni yasashda ishlatiladigan materiallarning xossalarini o'rganadilar, narsalar tashqi ko'rinishiga qarab taqqoslash va guruhlarga ajratishni o'rganadilar. Aynan didaktik o'yin davomida bolalar o'rta qo'yilgan masalani hal etishda sabr-matонатli bo'lishga, qiziquvchanlikka va diqqat-etiborlilikka odatlanadilar. Musiqaviy-didaktik o'yinlar esa tovushlarni diqqat bilan tinglab, ularni bir-biridan farqlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ta'limiy jarayonida o'tkazilgan har qanday o'yin o'zida ikki xil mazmunni aks ettiradi:

- birinchisi – o'yinda qatnashuvchilar uchun ma'lum bo'lgan dam olish, ko'ngil ochish, xordiq chiqarish, kayfiyatni ko'tarish;
- ikkinchi ma'nosi esa mashg'ulotni olib boruvchi (boshlovchi) uchun ma'lum bo'lib, bunda guruh bilan ishlash jarayonida boshlovchi o'z oldiga qo'ygan muayyan vazifalarni amalga oshiradi.

Shu tariqa o'yin nafaqat ko'ngilxushlik, balki guruh yoki biror ishtirokchining xulq-atvorini boshqarish, o'zgartirish hamda boshlovchi uchun zarur yo'nalishda harakatlanish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat M. M. Mirziyoyev. (2019, 8 may). PQ-4312 son "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" [Prezident qarori].
2. Пармонова, М. Ю. (2010). "Научно-педагогическое наследие Е. А. Аркина в области физического воспитания и оздоровления дошкольников". Педагогическое образование, (22), 22–24.
3. Хасанбоева, О. У., Собирова, М. К., & Иломова, Д. Р. (2006). Maktabgacha ta'lim pedagogika. Toshkent: Ilm Ziyo.
4. Salimova, D. F. (2021). Maktabgacha yoshdagi bolalarda syujetli-rolli o'yinlar vositasida axloqiy sifatlarini shakllantirishning samarali metodlari. [Metodik qo'llanma]. Toshkent.
5. Shin, A. V., Mirziyoyeva, Sh. Sh., & Grosheva, I. V. (2020). O'yin orqali ta'lim olish. Toshkent.
6. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. (2022). "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi: maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun. Toshkent.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.